



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SS ENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	

O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI



Qurbonov Sharofiddin Xurramovich
Qashqadaryo viloyati "Mintaqaviy yo'llar buyurtmachi xizmati"
davlat muassasasi Bosh mutaxassisi
E-mail: qurbanovsh1281@gmail.com

Annotatsiya. Avtomobil yo'llari qurilishi xizmatlari zamonaviy iqtisodiyot tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada O'zbekistonda avtomobil yo'llari tarmog'ining bugungi holati, yo'l qurilishi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari, ularni moliyalashtirish manbalari va investitsiyalar, shuningdek, sohadagi asosiy muammolar hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik, infratuzilma, avtomobil yo'llari, yo'l qurilishi, transport infratuzilmasi, xususiy sektor, investitsiya, iqtisodiyot, samaradorlik, tendensiya.

Аннотация. Услуги по строительству автомобильных дорог являются важной составляющей современной экономической системы и играют существенную роль в развитии транспортной инфраструктуры и обеспечении устойчивого экономического роста страны. В статье проанализированы современное состояние сети автомобильных дорог Узбекистана, тенденции развития услуг по строительству автомобильных дорог, источники их финансирования и инвестиций, а также основные проблемы и перспективы развития отрасли.

Ключевые слова: сфера услуг, предпринимательство, инфраструктура, автомобильные дороги, дорожное строительство, транспортная инфраструктура, частный сектор, инвестиции, экономика, эффективность, тенденции.

Abstract. Road construction services constitute an essential component of the modern economic system and play a significant role in the development of transport infrastructure and the sustainable growth of the national economy. This article analyzes the current state of Uzbekistan's road network, the development trends of road construction services, sources of financing and investment, as well as the major challenges and future prospects of the sector.

Keywords: service sector, entrepreneurship, infrastructure, highways, road construction, transport infrastructure, private sector, investment, economy, efficiency, development trends.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning yirik davlatlaridan biri bo'lib, uning geografik joylashuvi transport infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz ikki tomonlama quruqlikka o'ralgan (double-landlocked) davlat sifatida avtomobil yo'llari tarmog'iga alohida e'tibor qaratishi lozim, chunki bu yagona milliy iqtisodiyotni mintaqaviy va xalqaro bozorlarga bog'lovchi asosiy vositadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishni davlat siyosatining ustuvor



yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Keyingi bosqichda «Yangi O'zbekiston – 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi» va «O'zbekiston – 2030» strategiyasi yo'l infratuzilmasini rivojlantirishga yanada ko'proq e'tibor qaratdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Avtomobil yo'llari qurilishi xizmatlari ko'rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlik, infratuzilma boshqaruvi, moliyalashtirish va transport iqtisodiyoti bo'yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. David A. Hensher avstraliyalik transport iqtisodchisi. Transport infratuzilmasini rivojlantirish, avtomobil yo'llari loyihalarining iqtisodiy samaradorligi va transport xizmatlari bozorini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar muallifi hisoblanadi [1]. David A. Hensher yo'l infratuzilmasini iqtisodiy baholash, yo'llarni saqlash va ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish, transport foydalanuvchilarining xarajat va vaqt bo'yicha tanlovini tahlil qilish, pullik yo'llar va ularni moliyalashtirish mexanizmlari, transport xizmatlari sifatini iqtisodiy mezonlar asosida baholash masalalarini o'rgangan. Bugungi kunda ushbu nazariyalar avtomobil yo'llari xizmat ko'rsatish tizimining samaradorligini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda keng qo'llaniladi.

Kenneth A. Small transport iqtisodiyoti va infratuzilma iqtisodiyoti sohasidagi yetakchi amerikalik olimlardan biridir. U University of California, Irvine professori bo'lib, avtomobil yo'llari iqtisodiyoti, tirbandlik (congestion), yo'l narxlash (road pricing), transport investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligi va transport siyosati bo'yicha fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borgan [2]. Kenneth A. Small ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini optimallashtirish, yo'l xizmatlari sifatini iqtisodiy mezonlar orqali baholash, transport tizimida xarajat–foyda tahlilidan foydalanish, yo'l xo'jaligini barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan. Ushbu yondashuvlar yo'l xo'jaligi xizmatlarini iqtisodiy tahlil qilish va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asos yaratishda keng qo'llaniladi.

Erik Verhoef niderlandiyalik taniqli transport iqtisodchisi bo'lib, transport iqtisodiyoti, avtomobil yo'llarini boshqarish, yo'l narxlash (road pricing), ekologik iqtisodiyot va transport siyosati yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borgan [3]. U Vrije Universiteit Amsterdam professori sifatida faoliyat yuritgan va transport infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha xalqaro miqyosda e'tirof etilgan olimlardan biri hisoblanadi. Erik Verhoefning eng muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri avtomobil yo'llaridan foydalanish uchun to'lov tizimlarini iqtisodiy jihatdan asoslashdir. U yo'llardan foydalanish narxini transport oqimi va tirbandlik darajasiga qarab belgilash transport tizimining samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan isbotlagan. Erik Verhoefning ilmiy qarashlari quyidagi yo'nalishlarda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi: avtomobil yo'llaridan foydalanish samaradorligini iqtisodiy baholash, yo'llarni saqlash va ekspluatatsiya qilish xarajatlarini optimallashtirish, yo'l xo'jaligini moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish, transport infratuzilmasining ekologik va ijtimoiy ta'sirini hisobga olgan holda iqtisodiy tahlil o'tkazish, yo'l xizmatlari sifatini va investitsiya loyihalarining samaradorligini kompleks baholash. Verhoefning ishlari, ayniqsa, avtomobil yo'llari infratuzilmasini uzoq muddatli, iqtisodiy jihatdan barqaror boshqarish va xizmat ko'rsatish tizimlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar uchun muhim nazariy manba hisoblanadi.

Gomez-Ibanez transport iqtisodiyoti, infratuzilma siyosati va davlat-xususiy sheriklik (PPP) bo'yicha dunyoga mashhur amerikalik olim. U Harvard University tarkibidagi Harvard Kennedy School professori bo'lib ishlagan. Uning ilmiy izlanishlari transport infratuzilmasini boshqarish, avtomobil yo'llarini moliyalashtirish, xususiyashtirish va iqtisodiy tartibga solish masalalariga bag'ishlangan. Gomez-Ibanez transport infratuzilmasini rejalashtirish, qurish va boshqarishning iqtisodiy asoslarini o'rgangan. U transport loyihalarini baholashda nafaqat moliyaviy foyda, balki ijtimoiy va hududiy rivojlanishga ta'sirini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Olimning eng muhim ilmiy hissalaridan biri avtomobil yo'llari va boshqa transport infratuzilmasini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish masalasidir. U xususiy sektorni jalb qilish investitsiyalar hajmini oshirishi, xizmatlar sifatini yaxshilashi, davlat byudjeti yukini kamaytirishi, infratuzilmani samaraliroq boshqarishga yordam berishini ilmiy asoslagan. Gomez-Ibanez turli mamlakatlarda avtomobil yo'llari, temir yo'llar va boshqa transport tarmoqlarini xususiyashtirish tajribasini tahlil qilgan. U xususiyashtirish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun aniq huquqiy asos, shaffof shartnomalar, samarali davlat nazorati, adolatli tarif siyosati zarurligini ta'kidlagan.

S.M. Rezer o'z ishida o'zgarishlar sharoitida mintaqaviy transport tizimlarini boshqarish modellari va muammolarini ko'rib chiqqan. Mamlakat ishlab chiqarish-transport tizimida transport turlarining o'zaro ta'sir usullari, transport ishlari bozorini prognozlash metodologiyasi va magistral yo'l transportida yuklash ishlari rejalashtirish prinsiplarini to'liq tahlil etgan [5].

Avtomobil yo'l qurilishi xizmatlari ko'rsatish sohasiga yaqin turdosh yo'nalishlar bo'yicha, ya'ni avtomobil transport xizmatlarini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha respublikamizning bir qator iqtisodchi olimlari o'z fikrlarini bayon etishgan. Jumladan, Pardayev M.Q., Isroilov Yo.J. va boshqalar shu yo'nalishda chuqur tadqiqotlar olib borganlar [6].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekistonda avtomobil yo'llari tarmog'ining hozirgi holati va yo'l qurilishi xizmatlari ko'rsatishning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi. Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil etish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, xorijiy hamda O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda raqamli va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini yanada **taraqqiy ettirish** muhim vazifalardan hisoblanadi. Jahon va xalqaro tajribalardan kelib chiqib, hozirda mamlakatning rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishi uchun xizmat ko'rsatish va servis sohasining mamlakatda yaratilayotgan **YAIMdagi** ulushi 70 foizdan yuqori bo'lishi asosiy mezon bo'lib qolmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQSH iqtisodiyotida yaratilgan YAIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasi ulushi 78 foizni, Yaponiyada 62 foizni [7], O'zbekistonda 43,7 foizni tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, xizmatlar sohasi tarkibida transport xizmatlari yuqori salmoqqa ega bo'lib, ushbu sohaning alohida olingan turlarini (yuk avtomobil transporti xizmatlarini) chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda mavjud avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi **184 000 km**ni tashkil qiladi. Bu yo'llar ikki asosiy kategoriyaga bo'linadi: umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari (Avtomobil yo'llari qo'mitasi balansida) va mahalliy yo'llar (mahalliy hokimliklar balansida).

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining uzunligi **42 695 km**ni tashkil qilib, ular quyidagicha taqsimlanadi:

xalqaro ahamiyatdagi yo'llar – **3 981 km** (9,3%), bu yo'llar mamlakatni qo'shni davlatlar bilan bog'laydi va xalqaro transport koridorlarining tarkibiy qismi hisoblanadi;

davlat ahamiyatidagi yo'llar – **14 100 km** (33,0%), bu yo'llar viloyat markazlari va yirik shaharlarni bog'laydi;

mahalliy ahamiyatdagi yo'llar – **24 614 km** (57,7%), bu yo'llar tuman markazlari va qishloq aholi punktlarini bog'laydi.

Mahalliy hokimliklar balansidagi yo'llarning umumiy uzunligi **116 560 km**ni tashkil qilib, ular quyidagicha taqsimlanadi: shahar ko'chalari – **7 125 km**, tuman markazlari ko'chalari – **12 530 km**, qishloq aholi punktlari – **49 383 km**, shahar aholi punktlari – **15 456 km**, xo'jaliklararo qishloq yo'llari – **32 066 km** (1-jadval).

1-jadval
O'zbekiston Respublikasida avtomobil yo'llari tarmog'ining tarkibiy tuzilishi (2024 yil)[7]

Yo'l turi	Uzunligi (km)	Ulushi (%)	Balans egasi
Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari:	42695	23,2	Avtomobil yo'llari qo'mitasi
- xalqaro ahamiyatdagi	3981	2,2	-
- davlat ahamiyatidagi	14100	7,7	-
- mahalliy ahamiyatdagi	24614	13,3	-
Mahalliy hokimliklar balansidagi yo'llar:	116560	63,3	Mahalliy hokimliklar
- shahar ko'chalari	7125	3,9	-
- tuman markazlari ko'chalari	12530	6,8	-
- qishloq aholi punktlari	49383	26,8	-
- xo'jaliklararo qishloq yo'llari	32066	17,4	-
Qolgan yo'llar (sanoat, xususiy)	24745	13,5	Boshqa egalar
JAMI	184000	100,0	-



O'zbekiston avtomobil yo'llari tarmog'ining rivojlanish darajasini baholash uchun MDH davlatlari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, **2023-yil 1-yanvar holatiga** MDH davlatlarida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari uzunligi bo'yicha O'zbekiston to'rtinchi o'rinni egallaydi (2-jadval).

2-jadval

MDH davlatlarida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari uzunligi (2024 yil 1 yanvar holati) [10]

№	Davlat	Yo'llar uzunligi (ming km)	Hudud maydoni (ming km ²)	Yo'l zichligi (km/100 km ²)
1	Rossiya	1600,0	17 098,2	9,4
2	Belarus	104,1	207,6	50,1
3	Qozog'iston	94,8	2 724,9	3,5
4	O'zbekiston	42,9	448,9	9,6
5	Ozarbajon	28,3	86,6	32,7
6	Moldova	9,5	33,8	28,1
7	Armaniston	7,5	29,7	25,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning yo'l zichligi ko'rsatkichi (100 km² hududga 9,6 km yo'l) MDH davlatlari o'rtasida o'rtacha darajada. Bu ko'rsatkich Belarus (50,1), Ozarbajon (32,7) va Moldovadan (28,1) past, ammo Rossiya (9,4) va Qozog'istondan (3,5) yuqori. Biroq, O'zbekistonning aholi zichligi MDHda eng yuqorilaridan biri (81 kishi/km²) ekanligini hisobga olsak, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yo'l uzunligi nisbatan kam ekanligini ko'ramiz.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati yo'l infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. **2021–2025-yillarga** mo'ljallangan Yo'l sohasi rivojlanishi davlat dasturi doirasida sohaga **4,4 mlrd dollardan** ortiq mablag' sarflanishi rejalashtirilgan. Bu mamlakatimiz tarixidagi eng yirik yo'l qurilishi dasturi hisoblanadi.

Jahon banki hisoblariga ko'ra, O'zbekistonning yo'l infratuzilmasini rivojlantirish rejasida yillik **1,5 mlrd dollar** moliyaviy tanqislik mavjud. Bu tanqislikni bartaraf etish uchun xususiy sektor va tashqi moliyalashtirish manbalarini jalb qilish zarur. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalari bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2024-yilda Transport vazirligi tomonidan yo'l infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

umumiy foydalanishdagi yo'llarni ta'mirlash: **4 267 km** avtomobil yo'llari ta'mirlandi (3 trln 96 mlrd so'm mablag' o'zlashtirildi);

“**Mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish**” dasturi: **8 710 km** ichki yo'llar ta'mirlandi (3 trln 420 mlrd so'm mablag' hisobiga);

“**Tashabbusli byudjet**” dasturi: **2 330 km** ichki yo'llar ta'mirlandi (1 trln 42 mlrd so'm mablag' hisobiga);

“**Yangi O'zbekiston**” massivlari: **39 km** ichki yo'llar qurildi (166,8 mlrd so'm mablag' hisobiga);

xalqaro moliya institutlari loyihalari: **310 km** avtomobil yo'llarida rekonstruksiya ishlari yakunlandi;

ko'priklarni ta'mirlash: **225 ta** ko'prik ta'mirlandi (umumiy foydalanishdagi yo'llarda – **103 ta**, ichki yo'llarda – **122 ta**) (3-jadval).

3-jadval

Yo'l qurilishi va ta'mirlashga sarflangan mablag'lar (2024-yil)[11]

Dastur/Yo'nalish	Mablag' (mlrd so'm)	Yo'l uzunligi (km)	1 km uchun (mlrd so'm)
Umumiy foydalanishdagi yo'llar ta'mirlash	3096	4267	0,73
“Mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish”	3420	8710	0,39
“Tashabbusli byudjet”	1042	2330	0,45
“Yangi O'zbekiston” massivlari	166,8	39	4,28
Birinchi navbatdagi mahallalar yo'llari	1577	3401	0,46
JAMI	9301,8	18747	0,50



Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) O'zbekistonning eng yirik rivojlanish hamkorlari qatoriga kiradi. OTB 2007–2024-yillarda yo'l infratuzilmasiga 1,3 mlrd dollardan ortiq mablag' ajratgan. 2024–2028-yillarga mo'ljallangan mamlakat hamkorlik strategiyasiga ko'ra, OTB O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishini, xususi sektor rivojlanishini va inson kapitaliga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashni davom ettiradi.

2024-yil dekabr holatiga ko'ra, OTB O'zbekistonga jami 13,4 mlrd dollar hajmida 267 ta davlat sektori kreditlari, grantlar, kafolatlar va texnik yordam ajratgan. Hozirgi davlat sektori portfelida 34 ta kredit, 1 ta grant va 2 ta davlat kafolati mavjud bo'lib, ularning umumiy qiymati 4,88 mlrd dollarni tashkil qiladi.

2025-yil avgustida OTB O'zbekistonga 233,1 mln dollar hajmida yangi kredit ajratdi. Bu mablag'lar Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik (CAREC) yo'l koridori 2-ni modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan. Loyiha doirasida Qoraqalpog'istondagi G'uzor–Buxoro–Nukus–Beyneu (A380) avtomagistrali 87 km masofada rekonstruksiya qilinadi.

Jahon banki ham O'zbekiston yo'l infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bank Toshkent–Andijon avtomagistrali (TAR) loyihasi bo'yicha 2015-yilda 2,85 mln dollar qiymatidagi investitsiyagacha tadqiqotni moliyalashtirgan. Ushbu loyiha taxminan 5,35 mlrd dollarga baholanmoqda va DXSH modeli bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda (4-jadval).

4-jadval
Xalqaro moliya institutlarining yo'l infratuzilmasiga ajratgan mablag'lari[12]

Moliya instituti	Umumiy hajm (mln \$)	Asosiy loyihalar	Davr
Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB)	1300+	CAREC yo'l koridorlari, qishloq yo'llari	2007-2024
Jahon banki	500+	TAR loyihasi, Buxoro yo'llari	2015-2024
Osiyo infratuzilma investitsiya banki (OIIB)	214,7	Buxoro yo'l tarmog'ini yaxshilash	2020-2025
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB)	150+	TSR loyihasi texnik-iqtisodiy asoslash	2019-2024
Islom taraqqiyot banki (ITB)	200+	Mintaqaviy yo'llar	2018-2024
JAMI	2364,7+	-	2007-2024

O'zbekistonda hozirgi vaqtda bir qator yirik yo'l qurilishi loyihalari amalga oshirilmoqda yoki rejalashtirilmoqda. Bu loyihalar mamlakatning mintaqaviy aloqadorligini kuchaytirish va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Toshkent shahar halqa yo'li (85 km). Ushbu loyiha poytaxtni atrofdagi hududlar bilan bog'lash, shahar ichidagi transport oqimini yengillashtirish va logistika samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Loyiha taxminan 500 mln dollarga baholanadi.

Andijon–O'sh–Qashqar avtomagistrali. Ushbu xalqaro avtomagistral O'zbekistonni Qirg'iziston va Xitoy bilan bog'laydi, bu esa mintaqaviy savdo va hamkorlik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Loyiha strategik ahamiyatga ega bo'lib, Xitoy–Yevropa transport koridorining muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Buxoro–Miskin–Samarqand avtomagistrali (175 km). Ikki tarixiy Ipak yo'li shahrini bog'lovchi bu magistral turizmni rivojlantirish va mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Toshkent–Andijon avtomagistrali (TAR). Bu loyiha O'zbekistondagi eng yirik DXSH yo'l loyihasi bo'lib, taxminan 5,35 mlrd dollarga baholanadi. Loyiha Jahon banki ko'magida ishlab chiqilgan bo'lib, xususi sektorni jalb qilish orqali amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Toshkent–Samarqand avtomagistrali (TSR). Ushbu loyiha ETTB moliyaviy ko'magida ishlab chiqilmoqda. TAR va TSR loyihalarining umumiy qiymati taxminan 6,75 mlrd dollarni tashkil qiladi.



5-jadval
O'zbekistondagi yirik yo'l qurilishi loyihalari[13]

Loyiha nomi	Uzunligi (km)	Qiymati (mln \$)	Moliyalashtirish modeli	Holati
Toshkent-Andijon avtomagistrali (TAR)	~350	5 350	DXSh (pullik yo'l)	Tuzilish bosqichi
Toshkent-Samarqand avtomagistrali (TSR)	~300	1 400	DXSh (pullik yo'l)	TEA tayyorlanmoqda
Toshkent halqa yo'li	85	500	Davlat byudjeti	Qurilish jarayonida
Buxoro-Miskin-Samarqand	175	350	Aralash	Rejalashtirilmoqda
CAREC Koridor 2 (A380)	87	233	OTB krediti	Tasdiqlangan (2025)
Qishloq yo'llari (Surxondaryo, Buxoro)	107	274	OTB krediti	Amalga oshirilmoqda

O'zbekiston yo'l qurilishi sohasida sezilarli yutuqlarga qaramay, bir qator muhim muammolar va qiyinchiliklar mavjud. Bu muammolarni tahlil qilish va ularni hal etish yo'llarini topish soha samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, yo'llarning texnik holatining yomonlashishi. Jahon banki baholariga ko'ra, O'zbekistonda yo'llarni ta'mirlash va saqlashda yillik taxminan 1 mlrd dollar moliyaviy tanqislik mavjud. Ko'plab yo'llar, ayniqsa Toshkentdan tashqaridagi hududlarda, yomon holatda va ta'mirlashga muhtoj. Yo'llarning eskirishi transport xarajatlarini oshiradi va yo'l-transport hodisalarini xavfini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, yo'l xavfsizligi muammolari. O'zbekistonda 100 000 aholiga to'g'ri keladigan yo'l-transport hodisalarida halok bo'lganlar soni 11,2 kishini tashkil qiladi, bu xalqaro me'yorlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichdir. Avtomobil egalari sonining nisbatan past bo'lishiga qaramay, bu statistika yo'l infratuzilmasi va xavfsizlik choralari yaxshilash zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi. Yo'l infratuzilmasiga investitsiyalarning asosiy qismi davlat byudjetidan moliyalashtiriladi, xususi sektor ishtiroki hali ham cheklangan (5–10%). Bu DXSH loyihalarining sekin rivojlanishi va xususi investorlar uchun qulay muhit yaratilmaganligi bilan bog'liq.

To'rtinchidan, texnologik orqada qolish. O'zbekistonda BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi faqat 10–15% loyihalarda qo'llaniladi, holbuki rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 70–90%ni tashkil qiladi. Zamonaviy yo'l qurilishi texnologiyalari (geosintetik materiallar, polimer-bitumli qorishmalar, sement-beton qoplamalar) qo'llanilishi ham cheklangan.

Beshinchidan, malakali kadrlar yetishmasligi. Yo'l qurilishi sohasida zamonaviy texnologiyalarni qo'llay oladigan malakali mutaxassislar yetishmaydi. Bu muammo, ayniqsa, yangi materiallar va texnologiyalarni joriy etishda seziladi.

Oltinchidan, logistika samaradorligining pastligi. Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksi (LPI) bo'yicha O'zbekiston 160 ta mamlakat orasida 88-o'rinni egallaydi (2,6 ball). Bu ko'rsatkich Rossiya (87-o'rin) bilan deyarli teng, ammo Qozog'istondan past. Logistika samaradorligini oshirish uchun yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarur (6-jadval).

6-jadval
Yo'l qurilishi sohasidagi asosiy muammolar va ularning ta'siri[14]

Muammo	Sabablari	Iqtisodiy ta'siri	Jiddiyligi
Moliyaviy tanqislik	Byudjet cheklanganligi, xususi sektor ishtirokining pastligi	Yillik 1,5 mlrd \$ tanqislik	Yuqori
Yo'llar holati yomonlashishi	Ta'mirlashga mablag' yetishmasligi, iqlim ta'siri	Transport xarajatlari oshishi	Yuqori
Yo'l xavfsizligi	Yo'l sifati, belgilar yetishmasligi, haydovchilar xulqi	100 000 aholiga 11,2 halokat	Yuqori
Texnologik orqada qolish	Investitsiya yetishmasligi, kadrlar muammosi	BIM faqat 10-15% loyihalarda	O'rta
Kadrlar yetishmasligi	Ta'lim tizimi muammolari, tajriba almashish cheklanganligi	Innovatsiyalar joriy etilishi sekinlashishi	O'rta
Logistika samaradorligi pastligi	Yo'l sifati, idarachilik muammolari	LPI indeksi - 88-o'rin	O'rta



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda avtomobil yo'llari qurilishi xizmatlari rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish soha istiqbollarini baholash uchun muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatilmoqda:

Birinchii tendensiya: DXSH loyihalarining faollashishi. 2017-yildan beri O'zbekiston infratuzilmani rivojlantirishda xususii sektor ishtirokini faollashtirish siyosatini olib bormoqda. 2024-yil 5-avgust holatiga ko'ra, Hukumat jami 973 ta DXSH loyahasini imzolagan bo'lib, ularning umumii qiymati 2,152 mlrd dollarni tashkil qiladi. Yo'l sohasida TAR va TSR kabi yirik DXSH loyihalari rejalashtirilmoqda.

Ikkinchi tendensiya: xalqaro moliyalashtirishning kuchayishi. Xalqaro moliya institutlari (OTB, Jahon banki, OIIB, ETTB) yo'l infratuzilmasiga ajratayotgan mablag'lar hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Bu tendensiya O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi va investitsion jozibadorligining oshishi bilan bog'liq.

Uchinchi tendensiya: raqamlashtirish jarayonlari. Transport vazirligi huzurida "Raqamli transport markazi" davlat muassasasi tashkil etilib, axborot tizimlari soni 8 tadan 15 taga yetkazilgan. Yo'l qurilishi va boshqaruvida BIM, GIS hamda GPS texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ishlar boshlangan.

To'rtinchi tendensiya: mintaqaviy aloqadorlikni kuchaytirish. CAREC dasturi doirasida O'zbekiston mintaqaviy transport koridorlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish va Xitoy-Yevropa savdo yo'llarida muhim bo'g'in bo'lish strategiyasi bilan bog'liq.

Beshinchi tendensiya: ekologik texnologiyalarga e'tibor. Iqlim o'zgarishiga moslashish va karbon izini kamaytirishga qaratilgan loyihalar hajmi ortmoqda. OTBning 2024-yildagi 250 mln dollarlik iqlim siyosati krediti bu tendensiyaning yaqqol namunasi hisoblanadi.

O'zbekistonda avtomobil yo'llari tarmog'ining hozirgi holati va yo'l qurilishi xizmatlari rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida avtomobil yo'llari tarmog'ining umumii uzunligi 184 000 kmni tashkil qilib, shundan 42 695 km umumii foydalanishdagi yo'llar Avtomobil yo'llari qo'mitasi balansida hisobga olingan. Yo'llar xalqaro, davlat va mahallii ahamiyatdagi toifalarga bo'linadi.

Ikkinchidan, MDH davlatlari orasida yo'l tarmog'i uzunligi bo'yicha O'zbekiston to'rtinchi o'rinni egallaydi. Biroq, mamlakatning yuqori aholi zichligi (81 kishi/km²) hisobga olinsa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yo'l uzunligi nisbatan kam.

Uchinchidan, 2021–2025-yillarga mo'ljallangan Yo'l sohasi rivojlanishi davlat dasturi doirasida sohaga 4,4 mlrd dollardan ortiq mablag' sarflanishi rejalashtirilgan. 2023-yilda 18 747 km yo'llar ta'mirlangan va qurilgan.

To'rtinchidan, xalqaro moliya institutlari (OTB, Jahon banki, OIIB, ETTB) yo'l infratuzilmasiga 2007–2024-yillarda 2,3 mlrd dollardan ortiq mablag' ajratgan. TAR va TSR kabi yirik DXSH loyihalari amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Beshinchiidan, sohadagi asosii muammolar: yillik 1,5 mlrd dollar moliyaviy tanqislik, yo'l xavfsizligi muammolari, texnologik orqada qolish va malakali kadrlar yetishmasligi. Bu muammolarni hal etish uchun DXSH mexanizmlarini kengaytirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish hamda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

Oltinchidan, avtomobil yo'llari qurilishi xizmatlarida DXSH loyihalarining faollashishi, xalqaro moliyalashtirishning kuchayishi, raqamlashtirish jarayonlari va ekologik texnologiyalarga e'tiborning ortishi kabi ijobii tendensiyalar kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hensher D.A. *Transport Economics*. London: Routledge. Available at: <https://www.routledge.com> (murojaat sanasi: ..2026).
2. Small K.A., Winston C., Evans C.A. *Road Work: A New Highway Pricing and Investment Policy*. Washington, DC: Brookings Institution Press, 1989.
3. Verhoef E.T. *Handbook on Transport Pricing and Financing*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2023.
4. Gomez-Ibanez J.A. *Regulating Infrastructure: Monopoly, Contracts and Discretion*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2003.
5. Файзуллаев Ж. Замоначий транспорт логистика тизимининг бошқарув самарадорлигини ошириш // *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*. – 2017. – № 6.
6. Пардаев М.Қ., Исроилов Ё.Ж. *Автомобиль транспорти хизмати кўрсатувчи корхоналар таҳлилининг айрим жиҳатлари*. – Тошкент: Нашриёт «Ноширлик Ёғдуси», 2011.
7. О сокращении занятости в мировой промышленности // *БИКИ*. – 2019. – № 138 (8934). – С. 4.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>